

## TILNING KONDENSATSIONAL FUNKSIYASI

**M.Hakimov**

*filologiya fanlari doktori FarDU professori*

**M.Gaziyeva**

*filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD) FarDU dotsenti*

**Annotatsiya:** Maqolada implikativ-pragmatik birliklar va ularning tilning madaniy xotiraga asoslangan kondensatsional funksiyasini yuzaga chiqishidagi ishtiroki xususida fikr yuritiladi. Jumladan, implikativ birliklardan biri bo‘lgan allyuza hodisasiga alohida e‘tibor qaratiladi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** *matn, badiiy matn, implikativ-pragmatik birliklar, allyuziya, kondensatsional funksiya, presuppozitsiya, pretsedent birlik.*

Kommunikatsiya ishtirokchilari tasavvuri va tafakkuridagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy bilimlarsiz o‘zaro muloqotga kirishib bo‘lmaganidek, badiiy matn mazmunini anglashda ham olamning konseptual manzarasi muhim o‘rin tutadi. Chunki o‘tmish va bugungi kunga oid borliq haqidagi tasavvurlar, ularni semiologik anglash tizimi faqat millat va konkret individlar ongidagi modellarga asoslanadi. “Tashqi olam haqidagi umumiy bilimlarning deyarli hamma xalqlarda yaqinligidan kelib chiqilsa, presuppozitsiya universal kategoriya sifatida baholanishi mumkin, lekin bu bilimlar ichida qaraluvchi madaniyatlar, tarixiy sharoitlar, urf-odatlar, turmush sharoitlari kabilarning har xilligi presuppozitsiyaning nisbiy universal kategoriya ekanligini ko‘rsatadi”[Махмудов Н. 2:31]. Buni Y.M.Lotman badiiy matn bilan bog‘lab, “...badiiy matn tarkibidagi turli sohaga oid fikrlar ifodasini madaniy xotiraning kondensatsional funksiyasi” [Лотман Ю. 1:21], deb nomlaydi. Badiiy matnda implikativ birlikning madaniy xotiraga asoslangan kondensatsional funksiyasi quyidagi misolda ko‘zga tashlanadi:

*Hali Zaynab chaqaloq kunlar,  
Boshga tushdi chigal tugunlar:  
Ona uyi odamga to‘ldi,  
U Sobirga nishona bo‘ldi.  
Uch-to‘rt xotin go‘dak Sobirni  
Olib kelib ochdilar sirni,  
Zaynab bilan Sobirni maqtab,  
Va ikkovni bir-birga atab,  
Dasturxonda sindirdilar non,  
Va fotiha ko‘tarib shu on,  
Tarqaldilar...  
Zaynab beshikda,*



*Yig‘lar edi och qolib juda,  
Sobir esa hech gap anglamas,  
Yurar edi o‘yin bilan mas.  
Ana shunda bu qora odat,  
Qiz baxtiga urgan edi xat.*

*(H.Olimjon “Zaynab va Omon”)*

**Dasturxonda sindirdilar non** ifodasi o‘sha davr urf-odatlariga xos lisoniy indikator sifatida madaniy xotira va urf-odatlarga asoslangan kondensatsional funksiya vazifasini bajarmoqda. Bular, albatta, muallifning implitsit bilimlaridan biri bo‘lib, badiiy matnda allyuziyaga asoslangan mazmuniy strukturani tashkil qiladi. Allyuziyaga propozitsion konstruksiyalar orqali ishora qilinadi. Presuppozitsiya esa lisoniy indikatorlar yordamida namoyon bo‘ladi. Har ikki hodisa mazmuni implitsit bilim va fikrlar yordamida shakllanadi.

Matnning mazmuniy strukturasi murakkab bo‘lib, u eksplitsit va implitsit fikrlar ifodasidan tashkil topadi. Implitsitlik kategoriyasiga asoslangan matnning mazmuniy sathi bir necha qismlardan iborat bo‘lib, fikrning yashirin ifodalanishiga xos bo‘lgan bunday hodisalardan biri allyuziyadir. Allyuziya (lot. allusio - ishora, hazil) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan sharq mumtoz she‘riyatida keng qo‘llangan talmeh san‘atiga yaqin keladi. Farqli jihati shuki, talmehda ko‘proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o‘z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin [Куронов Д. ва бошқ. 3:28]. Allyuziya hodisasi muallif tomonidan badiiy matn tarkibiga kiritilgan o‘ziga xos alohida mazmuniy qism bo‘lib, u yuqorida ta’kidlanganidek, ma’lum davrga xos bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy, maishiy yoki adabiy-badiiy faktlarning lisoniy vositalar bilan ifodalanishidan tashkil topadi. Badiiy matnda bunday dalillarning lisoniy va nolisoniy vositalar bilan ifodalanishi muallif tafakkuridagi implitsit bilimlar asosida amalga oshiriladi. Badiiy matnda qo‘llanuvchi allyuziya orqali muallif ma’lum bir voqea-hodisalarga, badiiy dalillarga ishora qiladi. Allyuziyalar muallifga tegishli bo‘lmagan hodisalar hisoblanib, ular asar mazmunini boyitishga xizmat qiladi, asarda ishora qilingan allyuziya barcha kitobxonlarga mashhurlik belgisi bilan tanish bo‘lgan voqea-hodisalardir. Ular badiiy matnda muallifning istak-xohishiga ko‘ra qo‘llanadi va umumiy mazmuni to‘ldiruvchi intertekstual birlik sanaladi. Muayyan til egalari turmush tarzining u yoki bu qismida ro‘y bergan tarixiy faktlar yillar davomida akkumulyatsiyalanib, ular ana shu xalqning milliy-madaniy hayotiga aloqador intellektual mulkidir. Bunday intellektual allyuziyalar nafaqat ijodkor tafakkurida, balki ana shu til egalari xotirasida ham o‘z ifodasini topadi. Muallif esa asar



mazmuniy qismlarini o‘zaro bog‘lash uchun bunday allyuziyalardan mohirlik bilan foydalanadi. Allyuziya intertekstual birlik sifatida badiiy matnning umumiy mazmunini to‘ldirishga xizmat qiladi. U ham implikativ xususiyatga ega bo‘lib, faqat ishora funksiyasini bajarishi bilan badiiy asar mazmuniy yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Muallif matn mazmunini shakllantirish jarayonida har bir fikrni ham eksplikativ, ham implikativ ifoda usuli bilan tasvirlaydi. Bunda u implikativ shakl bilan ifodalanadigan fikrlarni matn ortiga yashirishda har xil usul va vositalardan unumli foydalanadi. Bunda u ana shu usul va vositalar orqali yashirib aytmoqchi bo‘lgan fikrlariga, ayrim allyuzion hodisalarga, pretsedent birliklarga ishora qiladi. Masalan, ...*o‘zbeklar o‘rtasida ham oilaning tez buzilib ketilish hollari... Erkaklar va ayollar orsidagi ibodan to‘qilgan pardaning haddan ziyod ko‘tarilib ketgani emasmikin... Nazarimda, ayollar erkaklar bilan har jihatdan teng bo‘lmog‘i kerak degan aqidani avval G‘arb ayollari, ulardan keyin Sharq ayollari butunlay bir tomonlama tushundilar, shekilli. Ular erkaklarga o‘xshab shim kiya boshladilar, erkaklardek cheka boshladilar va hatto og‘izlarini peshtaham qilib so‘kina boshladilar...*

*Yo‘q, men “falonchining qizi falonchining o‘g‘lidan bir hovuch mayiz olib turganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim” demoqchi emasman. (Ozod Sharafiddinov “Kibriyo opaning holvasi”)*

Bu o‘rinda muallif teng huquqlilik masalasiga o‘z pozitsiyasini ...*ayrim masalalarda “bulbulning erkagi sayrashi kerak”ligini butkul nazarga olmay, ayollarning o‘zlari sayramoqdalar* kabi fikr bilan ifodalaydi. Bu muallifning borliq hodisalariga nisbatan modusi bo‘lib, u o‘z qarashlari mohiyatini A.Qahorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasiga asoslangan allyuziya bilan tushuntiradi.

Badiiy matnda muayyan xalqning turmush-tarziga oid ijtimoiy-madaniy urf-odatlar ham allyuziya sifatida qo‘llanadi. Masalan, unashtirish marosimi bilan bog‘liq urf-odatlarni allyuzion mazmuniy struktura sifatida poetik matnlarda ham uchratish mumkin:

Topib kelgach bola uloqchasini,  
**Tishlab oldi qizning quloqchasini.**  
Ko‘zin ochdi sevgi buloqchasining,  
Qirda boqishganda echki-qo‘yini...  
Lek andisha qilar ra‘iyat, qishloq.  
Bilardi bu **qizning qulog‘i tishloq.**  
Qiz udum ro‘yobin kutardi mushtoq,  
Tushlarida ko‘rar nikoh to‘yini.  
Tishloq qiz egasin sevardi pinhon,



G‘urur va hayo bor, o‘rtada iymon.

Udumning borligi o‘zi bir qalqon.

O‘zgaralar band etmas uning o‘yini. (V.Jabborov)

Yuqoridagi she‘riy matnda unashtirish marosimi bilan bog‘liq urf-odatlar lisoniy vositalar bilan ifodalangan bo‘lib, ular *Tishlab oldi qizning quloqchasini, ...bu qizning qulog‘i tishloq, Tishloq qiz egasin sevardi pinhon, Udumning borligi o‘zi bir qalqon* kabi ifodalar orqali namoyon bo‘lmoqda. Demak, allyuziya badiiy matn mazmunini mukammallashtiruvchi intertekstual hodisalardan biri bo‘lib, u badiiy matn muallifining tafakkurida mavjud bo‘lgan konseptual birlikdir. Shuning uchun ham allyuziya muallifning implitsit bilimlari asosida ifodalanuvchi yashirin mazmuniy qismlardan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров: человек – текст – семиосфера – история. – М.: Яз. рус. культуры, 1999. – С. 21.
2. Махмудов Н. Пресуппозиция ва гап // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – № 6. – Б. 31.
3. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 28.